



# MADANIY O'ZIGA XOSLIKNI SHAKLLANTIRISHDA TILNING

## AHAMİYATI

*Marjona Toshpo'lotova Nuriddin qizi*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi*

*[marjonatoshpolotova0815@gmail.com](mailto:marjonatoshpolotova0815@gmail.com) (97)182-08-15*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jamiyatning asosiy sohalari va ularning o'ziga xos omillari haqida ma'lumot berilib, millatni rivojlantiruvchi madaniy sohaning o'ziga xosligi, unda tilning o'rni, taraqqiyot uchun tildagi imkoniyatlar va undagi alohida xususiyatlarga urg'u beriladi. Har bir omil alohida yo'nalishda tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy, til, adabiyot, milliy til, sheva, folklor, madaniyat, diffirensiallik, jamiyat.

**Аннотация.** В данной статье дается информация об основных сферах жизни общества и их специфических факторах, подчеркивается своеобразие культурной сферы, развивающей нацию, место языка в ней, возможности языка для развития, его особенности. Каждый фактор анализируется отдельно.

**Ключевые слова.** социальное, язык, литература, национальный язык, диалект, фольклор, культура, дифференциация, общество.

**Annotation.** This article provides information about the main sectors of society and their specific factors, emphasizing the uniqueness of the cultural sector that develops the nation, the role of language in it, the opportunities for development in language, and its special features. Each factor is analyzed in a separate direction.

**Key words.** social, language, literature, national language, dialect, folklore, culture, differentiation, society.

Dunyo tubdan o'zgarib borayapti. Rivojlanishlar esa o'z navbatida hech bir sohani chetlab o'tmas. Ijtimoiy, siyosiy, madaniy va ma'rifiy sohalardagi harakatlar



har onda takomillashib, o‘z jabasini kengaytirmoqda. Shu bilan bir qatorda har bir yo‘nalishda yangilik va diffirensial qarashlar juda muhim. Differensial qarashlar o‘ziga xoslikni keltirib chiqaradi. Yuqorida tilga olingan sohalarda turli o‘ziga xosliklar amalga oshirilsa, yoki farqli taraflari takomillashtirilsa, ularning ijtimoiylashish darajasi ortadi. Madaniy harakatlarda o‘ziga xoslik qanday amalga oshiriladi va uning ta’sir doirasi qanday?

Madaniy o‘ziga xoslik - bu muayyan jamiyat, xalq yoki guruhning boshqa madaniyatlardan farqlanadigan noyob xususiyatlari va qadriyatlarining majmuasidir. Bu o‘ziga xoslik tarixiy an’analar, urf-odatlar, diniy e’tiqodlar, san’at, til, hayot tarzi va hatto taomlar orqali namoyon bo‘ladi. Til va adabiyot ta’sirida madaniy o‘ziga xoslik qanday ta’milnadi? U qanday omillar bilan ta’sir ko‘rsatadi? Quidagilar asosiy omillardir:

1. Milliy til
2. Sheva va dialektlar
3. Yozma va og‘zaki adabiyot
4. Xalq og‘zaki ijodi (folklor).

Yuqorida qayd etilgan omillar jamiyat taraqqiyoti va uning boshqalardan farqlanadigan xususiyatlarini ko‘rsatishda til va adabiyotning qisman ta’sirini ifoda etadi. Agar millat haqiqatan jahon shoxsupasida tilga olinishni istasa, avvalo o‘z milliy tilini sayqallashi kerak bo‘ladi. Bunda asosan, chekka hududlarga davlat tilini yoyish, hamma uchun tushunarli bo‘lishini ta’milash hamda milliy tilda yozilgan adabiyot zaxirasini ko‘paytirish nazarda tutiladi. Milliy til har bir hudud uchun anglashilgan bo‘lsa va har bir fuqaro erkin so‘zlasha olsa, u jamiyatda uzlusiz taraqqiyot va ijtimoiylashuv kuzatiladi. Ammo milliy tilningina sayqallab shevalarni unutish, tilni yo‘qolib ketishiga sabab bo‘ladi. Ya’ni har qanday milliy til sheva va dialektlar bilan boy va betakrordir. Yozma va og‘zaki adabiyot esa hayotga madaniylashuvni juda katta tezlikda olib kiradi. Adabiyot kuchi bilan ba’zi millatlar mustaqilligini, yana ba’zilari madaniyatini qo‘lga kiritdi. Zero Abdulla Qahhor aytganidek, “Adabiyot atomdan kuchli, ammo uning kuchini o‘tin yorish uchun sarflamaslik kerak”. Madaniy o‘ziga xoslikni ta’milashda qadriyatlar va urf odatlar



yetakchilik qiladi. Bularni esa faqat xalq og‘zaki ijodi, ya’ni folklor orqali asrlar osha targ‘ib qilishimiz mumkin.

Milliy til madaniy o‘ziga xoslikning asosiy ustunlaridan biri bo‘lib, xalqning o‘zligini ifodalaydi va uni boshqa madaniyatlardan ajratib turadi. Uning madaniy o‘ziga xoslikdagi o‘rni quyidagicha:

1. Millat identifikatori
2. Madaniy merosni saqlovchi
3. Urf- odat va qadriyatlarni ifodalovchi
4. Ilm- fan va ta’limda vositachi
5. Davlatchilik va huquqiy tizim asosi
6. Globalizatsiya sharoitida milliy o‘zlikni saqlovchi.

Milliy til millatning identifikatori sifatida uning asosiy belgilari va ajralmas qismi hisoblanadi. Til millatni boshqa xalqlardan farqlantirib turadigan eng muhim omillardan biri bo‘lib, uning o‘zligini belgilaydi. Bu jihatdan madaniy o‘ziga xoslikda har bir xalq o‘z tiliga ega bo‘lishi bilan boshqalardan farq qiladi. Til millatning o‘ziga xos tafakkur tarzini, dunyoqarashini va qadriyatlarni aks ettiradi. Milliy ong va o‘zlikni shakllantiruvchi omil sifatida inson o‘z ona tilida fikrlaydi va dunyoni idrok qiladi, bu esa milliy tafakkurni shakllantiradi. Til orqali avlodlar o‘z tarixiy merosini anglaydi va milliy g‘ururni his qiladi. Madaniyat va an’analarni avlodlarga yetkazish borasida ham sezilarli o‘ringa ega. Og‘zaki ijod, maqollar, ertaklar va dostonlar milliy til orqali saqlanib, kelajak avlodlarga yetkaziladi. Diniy va axloqiy qadriyatlarni ham milliy til yordamida shakllanadi va mustahkamlanadi. Mustaqil davlatning milliy tili uning suverenitetining muhim ramzidir. Davlat boshqaruvi, qonunchilik va ta’lim tizimi milliy tilda yuritilishi millatning o‘zligini mustahkamlashga xizmat qiladi. U turli hududlar va ijtimoiy guruhlarni yagona millat sifatida birlashtiradi. U ijtimoiy birdamlik va milliy g‘ururni shakllantirishga yordam beradi. Shunday qilib, milliy til nafaqat muloqot vositasi, balki millatning o‘zligini aniqlovchi asosiy identifikator hamdir. Uni asrab-avaylash va rivojlantirish milliy madaniyatni saqlashning muhim shartidir.



Milliy til madaniy merosni saqlovchi bo‘lib, xalqning tarixiy, madaniy va ma’naviy boyliklarini avloddan-avlodga yetkazishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Maqollar, matallar, topishmoqlar – xalqning dunyoqarashi va hayotiy tajribasi aks etgan hikmatli iboralar. Ertaklar, dostonlar, qo‘shiqlar – millatning tarixiy xotirasi, qadriyatlari va orzularini o‘zida mujassam etgan asarlar. Mumtoz adabiyot – milliy yozma merosning eng muhim qismi bo‘lib, xalqning ma’naviy olamini ifodalaydi. Tarixiy hujjatlar, qo‘lyozmalar va yodgorliklarni anglash va o‘rganish imkonini beradi. Diniy manbalar va qadimiy yozuvlar milliy til orqali saqlanib, millat madaniyati va axloqiy qadriyatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Milliy bayramlar va marosimlar (Navro‘z, to‘y, ma’rakalar) o‘zining asl mohiyatini milliy til orqali saqlaydi. Mehmondo‘slik, odob-axloq qoidalari va boshqa ijtimoiy an'analar til vositasida yashab keladi. Milliy hunarmandchilik atamalari va texnikalarining saqlanishi milliy til bilan bog‘liq. Me’morchilik, kashtachilik, zargarlik va boshqa san’at turlarida til orqali ifodalangan qadriyatlar saqlanadi. Buyuk ajdodlar, tarixiy qahramonlar haqidagi bilimlar milliy tilda saqlanib keladi. Tarixiy shaxslar va milliy harakatlar haqida to‘plangan bilimlar xalq ongida til orqali saqlanadi va jonlanadi. Agar til yo‘qolsa, u bilan birga xalqning butun madaniy va ma’naviy merosi ham yo‘qolib ketishi mumkin. Shu sababli, milliy tilni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash – madaniy o‘ziga xoslikni saqlashning asosiy shartidir.

Madaniy o‘ziga xoslikda sheva va dialektlarning o‘rni haqida so‘z ketganda, ularning naqadar boy zaxira ekanini anglab yetiladi. Sheva va dialektlar milliy tilning ichki xilma-xilligi bo‘lib, ular xalqning madaniy merosini, tarixiy taraqqiyotini va mahalliy o‘ziga xosligini ifodalaydi. Sheva va dialektlar xalqning qadimiy tili va madaniyatini saqlashga yordam beradi. Ular mahalliy urf-odatlar, marosimlar va tarixiy voqealarning og‘zaki shaklda avloddan-avlodga yetkazilishida muhim rol o‘ynaydi. Har bir hududning o‘ziga xos shevasi bo‘lishi, o‘sha hududning madaniy va tarixiy ajralmas qismi ekanini ko‘rsatadi. Shevalar va dialektlar mahalliy aholini umumiy millat doirasida birlashtiruvchi va farqlantiruvchi omil sifatida xizmat qiladi. Shevalarda yaratilgan qo‘shiqlar, ertaklar, dostonlar va maqollar milliy madaniyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Ba’zi adabiy asarlar va folklor shevalarda



yozilgan bo‘lib, bu ularning milliy adabiyotga qo‘sghan hissasini ko‘rsatadi. Ular milliy tilni yangi so‘zlar va iboralar bilan boyitadi. Ko‘plab so‘zlar dastlab sheva va dialektlarda qo‘llanilib, keyinchalik adabiy tilga kirib keladi. Dialektal so‘zlar ba’zan muayyan madaniy tushunchalarni ifodalashda adabiy tilga qaraganda aniqroq bo‘lishi mumkin. Shevalar odamlar o‘rtasidagi muloqotda iliqlik va yaqinlik hissini uyg‘otadi, mahalliy hamjamiyatlarda birdamlikni mustahkamlaydi. Ko‘plab joylarda oilaviy va do‘stona muloqotda aynan shevalardan foydalaniladi. Eng qo‘rqinchli jihat shundaki, sheva va dialektlarning yo‘qolishi madaniy merosga tahdid ostida qoldiradi. Til zavolga yuz tuta boshlaydi. Globalizatsiya va urbanizatsiya natijasida ko‘plab shevalar yo‘qolib bormoqda, bu esa mahalliy madaniy xususiyatlarning yo‘qolishiga olib keladi. Shevalarning asrab-avaylanishi va ularni ilmiy o‘rganish madaniy xilmillikni saqlab qolishga xizmat qiladi. Sheva va dialektlar milliy tilning jonli va muhim qismi bo‘lib, ular xalqning tarixini, urf-odatlarini, madaniyatini va milliy o‘zligini saqlashga xizmat qiladi. Ularni asrab-avaylash va rivojlantirish milliy madaniyatni mustahkamlashning muhim omillaridan biridir.

Yuqorida keltirilgan xususiyat va omillarga tayangan holda til ham yengilmas kuch ekanini va uning millat umrboqiyligida bitmas xizmati borligini anglash mumkin. Madaniy soha bo‘ladimi, ijtimoiymi barcha yo‘nalishda o‘ziga xos taraqqiyot bosqichlari mavjud. Ularni qay darajada targ‘ib etish, ommalashtirish esa har bir millat vakiliga bog‘liq.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Shavkat Rahmatullayev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent. 2006.
2. K. Kalanov, M. G‘aniyeva... Sotsiologiya. – Toshkent. 2023.
3. Feruza Musayeva. O‘zbek xalq so‘zlari. – Toshkent. 2022.
4. Zulkumor Xolmanova. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent. 2020.
5. Mirsanjar, Sanayev. "REVIEW OF THE GHAZAL" NOMA" BY ABDULLA ORIPOV." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.7 (2022): 137-140.
6. Uktamov, M. "Modeling the professional training development of future teachers through computer training." *Science and innovation* 2.B9 (2023): 139-141.



7. Musurmanova, Yayra, and Jasmina Toshpg'lotova. "Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida iqtisodiy jarayonlar va moliyaviy munosabatlarning transformatsiyasi." *Nashrlar* (2024): 38-41.
8. G'G'Li, Madadjon G'Ktam. "Kuzatuv quduqlarida yer osti suvlarini gidrorejim parametrlarini masofaviy nazorat qilishning avtomatlashgan tizimlari." *Science and Education* 2.12 (2021): 202-211.
9. Musirmonov, Shohboz, and Jasmina Toshpg'lotova. "Moliya bozorini rivojlantirishda yashil iqtisodiyotga g'tishining muammolari va yechimlari." *Nashrlar* (2024): 374-377.
10. Muhammadiyev, Alijon, and Shukurullo Alikulov. "PROSPECTS OF USING COMPUTER TECHNOLOGIES IN MODERN EDUCATION." *Hayka i teknologiya v sovremennom mire* 3 (2024): 90-92.
11. Musurmanova, Yayra, and Jasmina Toshpg'lotova. "XXI ASR YOSHLARINING AXBOROT PSIXOLOGIK XAFSIZLIGINI TA'MINLASH MASALALARI." *Universal xalqaro ilmiy jurnal* 1 (2024): 445-447.
12. Musurmanova, Yayra, and Jasmina Toshpg'lotova. "SHAXSLARDA TAVAKKALCHILIK BILAN BOG 'LIQ VIRTUAL O 'YINLARGA MOYILLIGINI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI." *Universal xalqaro ilmiy jurnal* 1 (2024): 776-777.
13. Toshpg'lotova, Jasmina, and Yayra Musurmanova. "CURRENT ISSUES OF TEACHING UZBEK AND RUSSIAN LANGUAGES IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION." *Models and methods in modern science* 3 (2024): 187-191.
14. Musurmanova, Yayra, and Jasmina Toshpg'lotova. "TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA XORIJUY TILLARNI O 'QITISHNING DOLZARB MASALALARI." *Prikladnye nauki v sovremenном mire: проблемы и решения* 3 (2024): 10-12.